

8/8

Qabul yakuniga ko'ra, onlayn ro'yxatdan o'tgan va ta'lim yo'nalishlarini tanlagan abituriyentlar

1214 232 nafar

Shundan:

joriy yil bitiruvchilari  
395 023 nafar

avvalgi yillar bitiruvchilari  
819 209 nafar

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 52 (16505)  
2022-yil, 3-avgust  
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Kun mavzusi**  
2-bet

Birinchi yoshlarni volon-  
yorlikka tayyorlash dasturi

**Hay'at yig'ilishi**  
3-bet

Yoshlar ishlari agentligining  
faoliyati tahlil qilindi

**"Yoshlar daftari" dan**  
5-bet

2 mingta ish o'rni  
yarataman



Foto: Behruz RAJABOV

## TALABALIK SARI YANA BIR QADAM TASHLANDI

1-20-AVGUST KUNLARI 40 TA OTMDA KASBIY-IJODIY  
IMTIHONLAR BO'LIB O'TADI.

6-betga  
qarang

# BIRINCHI YOSHLARNI VOLONTYORLIKKA TAYYORLASH DASTURI

## TURKIYADA BO'LIB O'TMOQDA

2021-yil 19-20-sentabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Yoshlar va sport masalalari bo'yicha vazirlarning 5-yig'ilishi bayoniga asosan, Turkiya Respublikasi vakillari tomonidan Istanbul shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining Birinchi yoshlarni volontyorlikka tayyorlash dasturini tashkil etish taklifi berilgan edi. Taklifga muvofiq, joriy yil 1-5-avgust kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlari – O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Ozarbayjan, Qirg'iziston, Vengriya va Shimoliy Kipr Turk Respublikasi ishtirokida Birinchi yoshlarni volontyorlikka tayyorlash dasturi bo'lib o'tmoqda.



“

O'ZARO FIKR ALMASHISHLAR, TAJRIBALAR VA YANGI AMALIYOTLAR TO'G'IRISIDA QARDOSH MILLAT VAKILLARI O'Z TAKLIFLARINI BILDIRISHMOQDA.

Dasturda O'zbekiston delegatsiyasi nomidan 10 nafar volontyorlik harakatlarida faol va muntazam ishtirok etib kelayotgan ko'ngillilar, volontyorlik maktabi hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etmoqda.

Ilk bor o'tkazilayotgan dasturdan maqsad Turkiy mamlakatlari orasida ko'ngillilik harakatlarini rivojlantirish va amaliyotlar yuzasidan fikr almashish, millatlararo faoliyat doirasida yangi loyihalarni tashkil etish, o'qitish uslublarini targ'ib qilish, hamkorlikda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan yangi volontyorlik harakatlari haqida taklif va tavsiyalar almashishdan iborat. Besh kunlik o'quv dasturida volontyorlik faoliyatiga oid yangi yo'nalishlar, uning ijtimoiy hayotdagi afzalliklari, iqtisodiy yo'nalishda muhimligi haqida tayyorlangan o'quv targ'ibotlari, shuningdek, xalqaro miqyosda ushbu faoliyatning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar berilishi kutilmoqda.

Dasturning ochilish marosimida O'zbekiston delegatsiyasi vakillari rahbari so'zga chiqib, dastur va volontyorlikning ahamiyati hamda bu harakatning millatlararo muhimligi haqida to'xtaldi. Bu harakatning qardosh millatlar bilan birgalikda hayotga tatbiq etilishi keyingi yoshlar uchun mo'ljallangan loyihalarda katta maktab vazifasini o'tashi ta'kidlandi.

Forumda ishtirok etayotgan Turkiy davlatlar tashkilotining Turkiyadagi bosh kotibi Omer Kojaman, Turkiya yoshlar va sport vazirligining ta'lim, tadqiqot va muvofiqlashtirish bo'yicha bosh direktori o'rinbosari Erkan Shamilo'g'li hamda Turkiya yoshlar va sport vazirligi qoshidagi Volontyorlar kengashi rahbari Abdulloh Said Akkuzlar so'zga chiqib, mehmonlarni Turkiyaga tashrifi va dasturda ishtirok etayotgani bilan qutladi. Turkiya hukumatining Yoshlar siyosati doirasida olib bo-

rayotgan islohotlarida xalqaro tashkilot loyihalari alohida qo'llab-quvvatlashini ma'lum qilishdi.

Kunning ikkinchi yarmida Turkiyadagi volontyorlik harakati haqida taqdimot namoyish etildi. Taqdimotda Turkiyada amalga oshirilayotgan volontyorlik loyihalari, jamoalari va ular ishtirokida bo'lib o'tgan bir necha amaliyotlar hamda forumlar haqida ma'lumotlar berildi.

Aytishicha, Turkiyada ta'lim, ekologik harakatlari, sog'lamlashtirish va xizmat ko'rsatish, favqulodda va noxush holatlarda yordam beruvchi, shuningdek, madaniyat yo'nalishlaridagi volontyorlik jamoalarining ko'ngillilari faoliyat yuritib kelmoqda.

Savol-javob tarzida o'tgan birinchi kundagi taqdimotda O'zbekiston, Ozarbayjon va Qozog'iston vakillari yangi takliflar berdi. Turkiyalik yoshlar o'zlarining tajribalari, o'z jamoalari bilan amalga oshirayotgan yangi loyihalari haqida ma'lumot berdi.

Tashkilotchilar o'quv dasturining o'rganuvchilarga mukammal tarzda yetib borishida a'zo va kuzatuvchi mamlakat vakillariga alohida ishonch bildirilishi va dastur davomiyligini ta'minlash uchun hamkorlikka tayyor ekanligini bildirdi.

Xalqaro dasturning ilk kunidayoq yoshlar o'rtasida muloqot maydoni kengayib ketdi. O'zaro fikr almashishlar, tajribalar va yangi amaliyotlar to'g'risida qardosh millat vakillari o'z takliflarini bildirishmoqda.

Dasturning keyingi kunlarida O'zbekiston delegatsiyasi vakillariga omad tilaymiz va voqealar rivojini kuzatishda davom etamiz

**Ro'za ARTIKBOYEVA,**

O'zbekiston Yoshlari Umumjahon assotsiatsiyasining xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi

# 177



## IMKONIYAT

### NOGIRONLARNING REPETITOR XARAJATLARI QOPLAB BERILADI

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyundagi "Nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, nogiron yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar, dasturlash, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish, zarur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha (15 million so'mgacha) subsidiya ajratiladi.

Subsiyada olish uchun istalgan davlat xizmatlari markaziga murojaat qilinadi yoki Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portali (<https://my.gov.uz/uz>) orqali davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tiladi.



### Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:  
o'qish xarajatlari uchun subsidiya olishda:

- ariza bolaning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami va bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat;

- nodavlat ta'lim tashkiloti tomonidan ariza beruvchini o'qitish to'g'risida shartnomaning elektron nusxasi.

yashash va transport xarajatlari uchun subsidiya olishda:

- yo'l xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron nusxalari;

- ijara shartnomasi va uning soliq organlarida hisobga qo'yilganligi haqidagi bildirishnomaning elektron nusxasi.

Davlat xizmati bepul ko'rsatiladi.

# YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING FAOLIYATI TAHLIL QILINDI

Yoshlar ishlari agentligi Hay'atining 2022-yil birinchi yarim yillikda yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish bo'yicha amalga oshirgan ishlari hamda bu boradagi ustuvor vazifalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Yoshlar ishlari agentligi rahbariyati, markaziy apparat boshqarma va bo'lim boshliqlari, "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi hamda Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti mutasaddilari, shuningdek, Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari mas'ul xodimlari, Yoshlar ittifoqi hududiy kengashlarining mas'ullari, mahalladagi yoshlar yetakchilari ishtirok etdi.



Hay'at yig'ilishida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev so'zga chiqib, hisobot davrida bajarilgan ishlar va kelgusidagi eng muhim vazifalar xususida to'xtaldi:

– Yoshlar ishlari agentligining Hay'at yig'ilishi o'tkazilishidan maqsad yarim yillik faoliyatimizni sarhisob va tahlil qilish. Biz bu orqali faoliyatimiz davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarimiz ustida ishlashni yo'lga qo'yamiz. Mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilganiga 6 oy vaqt bo'ldi. Bu lavozimni joriy etishdan asosiy maqsad jamiyatning eng quyi bo'g'inidan manzilliy ishlash, har bir yoshni aniq maqsadlarga yo'naltirishdan iborat edi. O'tgan vaqt davomida biz nimalarga erishdik, ko'zlagan maqsadimizdan og'ishmayapmizmi, degan savollarga bugun javob topishimiz lozim.



Majlisda agentlik direktori o'rinbosarlari, hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo'lim boshliqlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti faoliyati doirasidagi masalalar, birinchi yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha mas'ullar hisoboti eshitildi. Hisobotlarda mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyati, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdagi muammo va kamchiliklar hamda ularni hal etish masalalari, "Yoshlar balansi" va "Yoshlar daftari" tizimi orqali yoshlarning bandligini ta'minlash, yoshlarning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash, yoshlar tadbirkorligiga ko'maklashish,

agentlik tizimida kadrlar salohiyatini oshirish, muammolarni tizimli o'rganish va hal etish, budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Faoliyatda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama etilib, barcha mas'ullar uchun muhim vazifalar belgilab berildi.

Hay'at yig'ilishini 9353 ta mahallada faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilari videokonferensiya shaklida masofadan kuzatib bordi. Majlisda yoshlar yetakchilari faoliyati, yoshlar o'rtasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda muhtojlarga ko'mak berish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar amaliy tahlil qilindi.

Jumladan, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 203,5 ming ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlardan 166,4 ming nafari (82 foiz) qo'llab-quvvatlanib, "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan 264,3 milliard so'm mablag' ajratilgani qayd etildi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri  
Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA

Qayd etilishicha, barcha mahallalarda kitobxonlik, san'at va madaniyat, intellektual o'yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo'yicha "Besh tashabbus olimpiadasi"ga 6,2 million nafar yosh qamrab olingan. Mahallalarda yetakchilarning targ'ibot ishlari samarasi o'laraq, birgina "Yoshlar ovozi" tanlovida 238,4 ming nafar yoshlar o'z mahoratini sinab ko'rdi. Bu natijalar o'tgan yilgiga nisbatan 80 barobarga oshganini ko'rsatadi.

Xalqaro imtixon tizimlari bo'yicha yuqori ball to'plagan yoshlarga imtixon topshirish xarajatlarini qoplab berish tizimi yanada takomillashtirilib, imtixon turlari 5 tadan 18 taga oshirildi. O'tgan 6 oy davomida 3,5 ming nafar yoshlarning 6,1 milliard so'mlik imtixon xarajatlari qoplab berilgan.

Yig'ilishda yoshlar yetakchilari va yosh tadbirkorlarning takliflari ham eshitildi. Ular ijrosi bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar yuklandi. Xususan, Zangiota tumanidagi "Obod turmush" mahallasidan tadbirkor Barno Uzoqova ishsiz yurgan sport murabbiyi bilan hamkorlikda o'z mahallasida yoshlar uchun sambo to'garagini tashkil etib, yoshlarga mashg'ulot o'tmoqchiligi, lekin buning uchun sharoitlar yetarli emasligini bildirdi. Uning aytishicha, bu ishni amalga oshirish uchun 27 million so'm mablag' zarur. Taklifni hay'at kengashi ijobiy baholab, shu joyning o'zida ijrosini ta'minlash yuzasidan topshiriq berildi.

Tahliliy-tanqidiy, ochiq muloqot ruhida o'tgan yig'ilishda yoshlar siyosatiga oid barcha masalalar ko'rib chiqildi.



Kontrakt puli to'lab berilgan talabalar:

25,5  
ming  
nafar



Ajratilgan mablag':  
76,6  
mlrd. so'm

Muddatli harbiy xizmat badali to'lab berilgan yoshlar:

12  
ming  
nafar



Ajratilgan mablag':  
62,4  
mlrd. so'm

Asbob-uskuna va mehnat qurollari xarid qilish uchun subsidiya ajratilgan yoshlar:

16,3  
ming  
nafar



Ajratilgan mablag':  
49,1  
mlrd. so'm

Haydovchilikka o'qitilgan yoshlar:

8,8  
ming  
nafar



Ajratilgan mablag':  
11,2  
mlrd. so'm

Imtixon xarajatlari qoplab berilgan yoshlar:

3,5  
ming  
nafar



Ajratilgan mablag':  
6,1  
mlrd. so'm

Sog'lig'ida muammosi borligi uchun davolangan yoshlar:

1,5  
ming  
nafar



Ajratilgan mablag':  
1,7  
mlrd. so'm

Bu xarajatlarning

30,6  
mlrd.  
so'mi



Yoshlar ishlari agentligi jamg'armasi hisobidan qoplangan.

# GAZ KELSA, ISHSIZLAR QOLMAYDI

Salohiddin QO'LDOSHEV,

Foto: Anvar TO'YCHIYEV



**Boyovut tumanidagi "Markaz" mahallasi yoshlar yetakchisi**

**H**amkasblarim qatori men ham yetakchi sifatidagi ishinni xatlovdan boshlaganman. O'sha damlarda xayolimda faqat bir narsa – qanday qilib yoshlarga yordam berishim mumkin, degan savol aylanardi.

Bir kuni navbatdagi xonadonga kirganimda keksa ayolning bir chelak suvni bazo'r ko'tarib kelayotganiga ko'zim tushdi. Ishimni tugatib, o'sha ayol tomon shoshildim. Tamara Valiyevaning yolg'iz yashashini bilardim, ammo unga yolg'iz yashash naqadar qiyin kechishini shu paytda chuqur angladim.

Onaxondan hovlingizdan suv chiqmaydimi, deb so'ragandim, "yo'q, kranni olib kiradigan odam topolmadim", – dedi 82 yoshli Tamara ona. Shunda bu ayolga mahalla yoshlarini birlashtirib, mahalladagi yolg'iz va keksa nuroniylarga ko'mak berishimni aytib, birinchi maoshimga hovlisidan suv chiqarib berishga va'da berdim.

Afsuski, otamning biroz tobi qochib, davolanishi sabab birinchi oyligimdan va'damni bajarolmadim, biroq ikkinchi maoshimni qo'limga olgan kunim baracha ko'ngilli yoshlarni yig'ib, yolg'iz ayolning xonadoniga bordik. Barcha zarur narsalarni olib kelib, bir kunda hovlidan suv chiqardik.

Onaxonning hovlisi ham juda abgor holda ekan. Shu bois mahalla yoshlari bilan hovlini ham obod qilishga kirishdik. Tevarak atrof-

ni oqlab, uy ichini ham qaytadan ta'mirlab, hamma joyni tartibga keltirdik. Tamara ona juda xursand bo'lib, bizni uzoq duo qildi. Shundan buyon mahallamiz yoshlari bilan deyarli har kuni bir keksa nuroniyning holidan xabar olib turibmiz.

Dadam ikkinchi guruh nogironi bo'lgani bois yoshligimda juda ko'p qiyinchilik ko'rganmiz. Shu paytda



“**AGAR GAZ KELSA, MAHALLAMIZDA BIR EMAS, IKKITA SEX ISH BOSHLAYDI.**”



kimdir ozgina qo'llab turishiga intiq edik. Kun kelib birovga yordam bera olish imkonim bo'lsa, albatta, qiynalayotgan oila farzandlariga

yordam beraman, deb o'zimga va'da berganman. Buni chin yurakdan istagan ekanman, bugun mahalla yoshlariga ko'mak beradigan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan, yoshlarning tashvishi bilan yashaydigan lavozimga tayinlandim. Hozir biror yosh o'z muammosini aytib kelsa, uni hal qilmasdan qo'ymayman. O'zimning kuchim yetmasa, tanish-bilish, kursdoshlarimdan maslahat olib, masalani hal qilaman.

Masalan, bir sinfdoshim hozir endokrinolog bo'lib ishlayapti. U juda yetuk mutaxassis, deyarli bo'sh vaqti yo'q. Biz birgalikda har yakshanba kuni mahalladagi keksalarni ko'rikdan o'tkazamiz. Bemorlar bilan uzoq suhbat qilib, ularni tez orada tuzalib ketishiga ishoniramiz. Albatta, bemorlar shifokorlarning so'ziga ishonadi. Ular tuzalasiz desa, albatta tuzaladi. Axir ishonch eng katta davo bo'ladi.



Hududni gazlashtirish Boyovut tumani aholisining necha yillik orzusi. Shu boisdan tumanga gaz olib kelish haqida o'ylab qoldim. Bunda esa "Open byudjet"dan foydalanishga kirishdim. Avvalo, puxta reja tuzib, rejani tasdiqlatdik. Galdagi harakat ovoz yig'ishga kirishish bo'ldi. Bu jarayon shu qadar katta harakatga aylanib ketdiki, uni hech kim chetdan kuzatmadi, hamma imkon qadar hissa qildi. Natijalarga ko'ra, biz 3200 ta ovoz to'pladik. Yaqin kunlarda mahallamiz gazlashadi degan umidimiz bor.

Agar gaz kelsa, mahallamizda bir emas, ikkita sex ish boshlaydi. Natijada mahallamizda birorta ham ishsiz aholi qolmaydi. Agar shu ishlar amalga oshsa, biz bundan sizlarni xabardor qilamiz. Yaxshi yangiliklar bilan tez orada chiqish qilamiz.

**“MARD O'G'LON” VA “KELAJAK BUNYODKORI” O'Z EGALARIGA TOPSHIRILDI**

**30-iyun – Yoshlar kuni arafasida bir guruh yoshlar Prezident farmoniga ko'ra, davlat mukofotlari – "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlangan edi.**

Davlat mukofoti bilan taqdirlangan 3 nafar yoshlarimiz pandemiya sababli mukofotni qabul qilib olish uchun tantanali tadbirga kela olmagandi.

Kecha Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev hamda mas'ullar ishtirokida Murodjon Rahmatov hamda Asilbek Mirzaumidovga "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, Shaxzod Turg'unboyevga esa "Kelajak bunyodkori" medali tantali ravishda topshirildi.

Tadbir davomida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev yoshlarni mukofot bilan tabriklab, keyingi faoliyatlarida muvaffaqiyat va zafarlar tiladi.

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV**



# 2 MINGTA ISH

## O'RNI YARATAMAN

Inson hayotda muayyan maqsadlar bilan yashaydi. Kimdir orzu-istaklariga ilm orqali erishsa, boshqasi kasb-hunar orqasidan yetishadi. Men bolalikdan hunarmandchilikka qiziqaman. Biroq tikuvchilik, zardo'zlik, kasanachilikni o'rganish uchun alohida vaqt sarflamaganman.

Asli qo'qonlik hunarmandlar avlodidanman. Ota-bobolarim Qo'qon aravalarini yasashgan. Bu-tilarim, onalarim atlas, bo'z kabi matolarni to'qishardi. Bolaligim shu hunarlar ichida o'tgan. Esimni tanibmanki, oilada hamma nima bilandir mashg'ul. Tikuvchilikka qiziqishim bo'lgan, ammo muntazam shug'ullanishga sharoit bo'lmagan.

2019-yili Zangiota tumaniga oilamiz bilan ko'chib keldik. Hozir "Obod turmush" mahallasida yashayman. 2020-yili tadbirkorlik qilish maqsadida "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga qo'yildim. Menga 9 million 600 ming so'm subsidiya ajratilib, ikki dona tikuv mashinasi olib berildi. Dastlab ishimi 3 ta ishchi bilan boshladim. So'ng ishimi kengaytirish maqsadida yana 33 million so'm kredit oldik. Ho-

zir ishchilarim soni 70 nafarga yetdi. Ularning 45 foizini nogiron yoshlar tashkil qiladi.

Kasanachilik yo'nalishida ham xotin-qizlarni ishli qilyapman. Bunga ham nogiron qizlarni jalb etdim. Bundan tashqari, uyida o'tirib ishlay oladigan qizlarning uylariga ham ish tarqataman. Ularni bo'sh vaqtda turli buyumlar yasash bilan band qilyapman.

Albatta, bu ishning rag'batli ham bor. Misol uchun, bir mahal-ladoshim 87 yoshli onasi va ikki farzandi bilan yashaydi. Unga uyda ishlashi uchun sharoit yaratib berdim. Hozir uyida ishlab oytiga 4 million so'mgacha daromad topyapti.

Yoshlar ishlari agentligi hay'atining birinchi yarim yillik yig'ilishida shaxsan agentlik direktori Alisher Sa'dullayev bilan suhbat-



**Barno UZOQOVA,**  
Zangiota tumanidagi "Obod turmush" mahallasidan, tadbirkor

“  
ISHIMIZNI KENGAYTIRISH  
MAQSADIDA YANA  
33 MILLION SO'M  
KREDIT OLDIK.

lashdim. Ularga hozirgi natijalar hamda kelajakdagi rejalarim haqida aytganimda qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini aytdi. Nasib qilsa keyin-

gi yil shu paytgacha 2 mingta ish o'rnini yaratishga harakat qilaman. Albatta, ularning orasida nogiron yoshlar bandligini ta'minlash rejasi ham bor.

## MENING MAHALLAM: MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

Mushtariydan maktub



Yaqinda deputatlikka navbatdan tashqari saylovda nomzodning ishonchli vakili bo'lib qatnashdim. Odatda saylov oldidan nomzod saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Okrugimizdagi saylovchilar bilan uchrashganimizda "Bizga bolalar maydonchasi qilib bersangiz, sizga ovoz beramiz", deb aytishdi. Albatta, bu taklifni inobatga olib saylovoldi targ'ibotni davom ettirdik.



**B**olalar maydonchalari bilan bog'liq muammoni o'rganishga kirishdim. Chirchiq shahridagi ayrim ko'chalarni aylanib, bolalar maydonchalari ahvoli bilan tanishdim. Haqiqatan ham ko'p joylarda bolalar maydonchalari ta'mirtalab ahvolda, ayrim ko'p qavatli uylar oldida maydonchalarning o'zi yo'q. Misol uchun, Chirchiq shahridagi Sh. Rashidov ko'chasida 3, 4 va 10-kichik nohiyalarda bolalar maydonchalari mavjud emas, bori ham ayanchli ahvolda. Hatto bo-


lalar o'ynashga chiqqani qo'rqadi.

Biroq hamma yerda vaziyat bir xil emas. Masalan, Yangi asr ko'chasi va Konstruktorlar dahasi-da faol fuqarolarimiz farzandlari uchun chiroyli va obod maydonchalar qurgan: kimdir bo'yoq, kimdir temir-tersak olib kelib, hashar o'tkazdi. Ta'kidlash joizki, na mahalla, na boshqa bir muttasadi tashkilot yordam bergani yo'q. Menimcha, mutasaddi tashkilotlar boshqa muhim ishlar bilan ovora.

Chirchiq shahrida bolalar maydonchalari og'riqli masala. Borlari ham e'tibordan chetda qolgan. Masalan, "Bo'zsuv" kanali bo'ylab sport bilan shug'ullanish uchun trenajorlar qo'yilgandi. Biroq ayrimlar bolalar maydonchasida sigir boqayotgani meni hayratda qoldirdi.

Yangi asr ko'chasi ahli ham o'z imkoniyatidan kelib chiqib hashar yo'li bilan bolalar maydonchasini barpo etish taraddudida. Bu yerda "domkom" Shoira opa bilan suhbatlashdim, "Bormagan joyimiz qolmadi. O'zim odamlar bilan yig'ilish qildim, ko'pchilik taklifimni ma'qulladi, pul tashladik. Hatto futbol maydonchasini ham qurdik", deydi u.

2020-yil 1-avgustdan kuchga kirgan "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi qonunda xususiy uy-joy mulkdorlari va kompaniya bilan aholi o'rtasida munosabatlar qanday bo'lishi



kerakligi batafsil belgilandi. Afsuski, ayrim kompaniyalar sobiq shirkatlardan pul olmaganiz, deb ta'mir ishlari olib bormayapti, ayrimlari esa uylarni qabul qilmayapti. Bir tomondan ularni ham tushunish mumkin. Ayrim shirkat raislari pullarni noqonuniy o'zlashtirib yuborgani tufayli vaziyat shu holatga kelgan. Nima bo'lganda ham, umid qilamizki, muammolar bartaraf qilinadi. Asosiysi, sobiq shirkatlardan qolgan "meros"ni boshqaruv kompaniyalariga topshirishdan oldin prokuratura xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Maksim GYULAHMEDOV,**  
Chirchiq shahri





## IMTIHONGA OZ QOLDI, SIZ TAYYORMISIZ?

Imtihon oldi hayajonlari: uyqusizlik, ishtaha yo'qolishi, asabiy bo'lib qolish. Agar bir necha kundan keyin imtihonga kirishingiz kerak bo'lsa-yu, yuqoridagi holatlarni bartaraf etmasangiz, imtihon kuni o'zingiz xohlamagan holda xotira pasayishi va diqqatni jamlay olmaslikdan qiyinalishingiz mumkin.

Buning oldini olishda taomnoma, ya'ni ovqatlanish ratsioni muhim ahamiyatga ega. Tarkibida kalsiy va temir mavjud bo'lgan mahsulotlar, ayniqsa, yangi uzilgan meva-sabzavotlar aqlli faoliyatingizni yanada yaxshilab, diqqat jamlashga yordam beradi.

Ruhiy holatni yaxshilashda uyqu ham kerakli o'rin tutadi. Ko'pchilik abituriyentlar imtihonga bir necha kun qolganda ovqatlanish, uyqudan voz kechib bo'lsa-da, ko'proq o'qish va yodlashga, bilganlarini takrorlab olishga shoshilishadi. Afsuski, bu yo'lni tutish doim ham yaxshi natijalarga olib kelavermaydi. O'z vaqtda dam olmaganingiz va tanaffuslarsiz ishlaganingiz sabab sizda imtihon kuni quvvatsizlik, uyqusirash kuzatilishi mumkinligini unutmang.

Imtihongacha o'qib ulgurmagani kitoblaringiz bo'lsa, bir necha kun ichida o'zlashtirib olishingiz ilojisiz, agar buni uddalagan taqdiringizda ham, organizmingizni ruhiy va aqlli jihatdan zo'r qiqtirasiz. Bu esa o'zingiz salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

### NIMA QILISH KERAK?

Imtihon oldi mahallangizdagi yoshi ulug', nuroniy otaxon-onaxonlarni ziyorat qilib, duolarini olsangiz nur ustiga nur. Bu bilan ancha xotirjamlikni his qilassiz, ularning duolari siz uchun eng yaxshi motivatsiya bo'ladi.

O'zingiz yoqtirgan muzqaymoq yoki biror shirinlik bilan sokin joylar: xiyobon, ko'l yoki anhor bo'ylarini aylanishingiz, tabiat qo'ynida dam olib, sevimli qo'shig'ingizni tinglashingiz mumkin. Bu o'z-o'zidan paydo bo'layotgan shoshqaloqlik va asabiylikni yengish uchun juda yaxshi yo'l.

Yaqinlaringiz davrasida oilaviy albomni yoki sevimli kinoni tomosha qilish orqali ham o'zingizga ishonchni yana bir pog'ona ko'tarishingiz mumkin. Imtihonlardan a'lo natija bilan o'tishingizga biz ham tilakdoshmiz, ammo shuni ham unutmangki, yomon natija ko'rsatgan taqdiringizda ham, yaqinlaringiz sizni yaxshi ko'rishadi va qadrlashadi.

Qunt va mashaqqat bilan bilim olib, talabalik sari intilayotgan har bir abituriyentga omad tilaymiz!

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

# JORIY YILDA QANCHA ABITURIYENT OTMGA HUJJAT TOPSHIRDI?

20-iyundan 27-iyulga qadar davom etgan oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirish jarayoni nihoyasiga yetib, ijodiy imtihonlar boshlanib ketdi. Shu davr mobaynida imtihon topshirish jarayonlari bilan bog'liq ko'pgina o'zgarishlar, xotin-qizlar uchun imtiyoz va kvota sonlari ma'lum bo'ldi.

So'nggi hisob-kitoblarga ko'ra, <b>1 214 232</b> nafar abituriyent OTMga hujjat topshirdi (2021-yilda bu ko'rsatkich 948 211 nafarni tashkil etgan edi). Abituriyentlarning ta'lim shakllari bo'yicha taqsimoti (birinchi ta'lim yo'nalishiga nisbatan) quyidagicha:	kunduzgi ta'lim shakli:	sirtqi ta'lim shakli:	kechki ta'lim shakli:	masofaviy ta'lim shakli:
	<b>612 530</b> nafar:	<b>565 902</b> nafar:	<b>27 417</b> nafar:	<b>8 383</b> nafar:

Ko'rib turganingizdek, masofaviy ta'lim 2022/2023-o'quv yilida ilk bor joriy etilishiga qaramasdan, bu ta'lim shaklida o'qishni ma'qul ko'ruvchilar sezilarli darajada ko'p.

Talabalik uchun talabgorlarning **395 023** nafari joriy yil, **819 209** nafari esa oldingi yillar bitiruvchilardir. Doimiy yashash hududi kesimi-da hisoblaydigan bo'lsak, **140 797** nafar abituriyent bilan Qashqadaryo viloyati birinchi o'rinni,

**45 413** nafar abituriyent bilan Sirdaryo viloyati oxirgi – **14**-o'rinni egallab turibdi.

Eslatib o'tamiz, 1-20-avgust kunlari **40** ta OTMda kasbiy-ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi. Demak, talabalik sari yana bir qadam tashlandi. Endi so'nggi qadam – imtihon qoldi, xolos. Bo'lajak talabalarining so'nggi qadamni ham muvaffaqiyatli amalga oshirishiga ishonamiz.

**Shahribonu RAHMATOVA**

## TEKIN PISHLOQ QOPQONDA BO'LADI

"Tekin sovg'a"... Biram yoqimli eshitiladi-a?! Afsuski mutasaddilarning firibgarliklar haqida ogohlantirishlariga qaramasdan, hamon ko'plab yurtdoshlarimiz firibgarlarning "tekin sovg'asi" dan jabr ko'rmoqda.

Odatda bunday "muxlis"lar ilgari qadrdonlari bo'lgan firibgarlarning asl yuzini ko'rgandan keyingina davlat idoralari murojaat qiladi. Nega? Nima uchun falon pullar bilan farzandini talabaga aylantirish vaqtida "men ham bu ish bilan firibgarning sherigi bo'lmaymanmi?" deb o'ylab ko'rishmaydi? Tarvuzi qo'ltig'idan tushganidan keyin davlat organlari tomon qanoq qoqishadi.

Hozir shu ogohlantirishdan so'ng ham beparvolar topilishi tayin. Buni hozirgina telegramdan kelgan xabar ham tasdiqlasa ne ajab. Nima emish, "Coca-cola" bepul sovg'a tarqatarmish. Sizga ham tanishmi bu xabar? Unda dardimiz bir ekan. Noma'lum va allambalo saytdan sovg'a kelarmish-a?! Undan-da qizig'i, bu xabarni ko'rganlar yashin tezligida bir-biriga ulashayotgani.



Azizlar, siz bir joyda o'tirishingiz mumkin, lekin firibgarlar anoyi emas-da, yangicha usullarni topishadi. Sal diqqatli bo'ling! Hech bo'lmasa, noma'lum saytning xabarlarini ulashmang.

"Tekinxo'rlik". Mana shu so'zning zamirida bir dunyo ma'no borki, firibgarlarning oshig'i olchi. Aytgancha, "Coca-cola" nomidan kelgan soxta xabarlarida mashina yutasiz, deyishgand. Yutsangiz, meni ham sayohatga olib borarsiz...

**Sabrina IBRAGIMOVA,**  
abituriyent

## AHOLI VA UY-JOYLARNI RO'YXATGA OLUVCHI XODIMLARGA O'QUV SEMINAR TASHKIL ETILDI

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joriy yilning 1-avgustidan 3-avgustigacha qadar respublikamizning barcha hududlarida turar joylar va binolar ro'yxatini tuzish va registratorlik uchastkasini sxematik rejasiga

aniqlik kiritish bo'yicha maxsus o'quv va amaliy mashg'ulotlar bo'lib o'tadi.


Toshkent shahrining barcha hududlarida ham ro'yxatga olish bo'lim xodimlari tomonidan uy-joylarni ro'yxatga oluvchi xodim (registrator) larga o'quv amaliy seminarlar boshlandi. 230 nafar registratorni qamrab olgan mazkur seminar-treninglarda uchast-

kani xatlovdan o'tkazish, ya'ni respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) yoki yashashi mumkin bo'lgan barcha binolar ro'yxatini aniqlash, kartografik materiallarni qiyosiy tekshirish, ularga tegishli belgi qo'yish va zarur hollarda o'zgartirishlar kiritishga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**Toshkent shahar Statistika boshqarmasi**

# “NORASMIY” TILANCHILAR

Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan odamlar toifasi va ular bilan uchrab turadigan holat sizga begona emas. Aytaylik, metroga tushyapsiz yoki o'qishdan, ishdan qaytyapsiz. Oldingizdan binoyidek kiyingan kishi (ahamiyatli, ular ko'pincha erkaklar bo'ladi) sizdan dorigami, taksigami deb pul so'raydi. Agar siz ilk marta shu holatga duch kelayotgan bo'lsangiz, biroz ikkilanib bo'lsada, yoningizni kavlab, so'raganini berishingiz ham mumkin. Ammo har kuni shu holatga tushayotgan bo'lsangiz, gapi oxiriga yetishini ham kutmassiz, ehtimol.



Jamiyatda bu kabi "norasmiy" tilanchilar ko'payib qoldi. Xo'sh, bunday oson yo'l bilan – hamiyat va g'ururini to'kib pul topishga odatlanish nimaning natijasida yuzaga kelyapti, qanday omillar bunga sabab bo'lishi mumkin?

Buni "kasb" qilganlar hayotda o'z o'rniga ega bo'lmagan, tuzukroq ta'lim ko'rmagan va shunga yarasha biror hunarining etagidan ham tutmagan odamlardir. Yoshligidan oson yashashga, kayf-safoga ruju qo'nganlar ulg'aygach ham shu yo'lni afzal ko'radi. Tarki odat amri mahol, deydi dono xalqimiz.

Taxminan bu shunday boshlanadi: avvalboshda yuzi qotguncha tanishlardan qarz so'raydi. Bejiz kitoblarda ham qarzning yomon ekani, orani, munosabatlarini buzuvchi illatligi bot-bot takrorlanmagan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: "Allohga qasamki, agar bir kishi Alloh yo'lida qatl etilsa, so'ng (qayta) tiriltilsa, so'ng yana qatl etilsa (yo'ni Alloh yo'lida uch marta o'lib-tirilsa ham), ustida qarzi bo'lsa, uni uzmagunicha jannatga kirmaydi" (Imom Nasa'iy).

## HALI U "PROFESSIONAL" TILANCHI EMAS

Yaqinlarining hammasidan qarz olib qaytarmagan, boshqa so'raydigan tanishi qolmagan kishi endi ko'chadagi begonalardan najot izlaydi. Hali u "professional" tilanchi emas. Shuning uchun begonalardan ham "...qarzga, albatta, qaytaraman, men tilanchi emasman, doriga pulim yetmay qoldi", – deya hatto telefon raqamini ham qoldiradi. Bunday pozitsiya bilan odamlarning 50 foizini ishontira oladi.

Qarabsizki, topgani "shisha"ga yetyapti. Atrofdagi ham kiyinishiga, gap-so'ziga qarab unga ishonadilar. Muttasil ichkilik natijasida aft-angori bir ahvolga kelib qolgan odam endi faqat pul so'raydi, unga ishonish-ishonmasliklari qiziqtiraydi, maqsadi bitta – dorixonada sotiladigan "non"!

Bunday kasbni o'ziga ravo ko'rayotganlar safida ayollar, yosh bolalar, voyaga yetgan yigit-qizlar ham borligi kishini o'ziga toldiradi. Atrofimizda go'dak fitratiga ham pul isini, tilanchilik

illatini yuqtirgan ota-onalar borligi, ko'payayotgani naqadar achinarli! Siz bu kabi odamlarga ko'p bora aldanganlardansiz, bundan o'zingizning xabaringiz ham yo'q bo'lishi mumkin.

## KIMGA ISHONISH KERAK?

Eslab ko'ring, shu kungacha necha marotaba ko'chada pulsiz qolgan, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berdingiz. Endi ayting-chi, ulardan hammasi ham rosmnana yordamga muhtoj, tilanchi bo'lmagan kishilar edimi? Afsuski, bilmaysiz. Yoki teskarisi: siz shu choqqacha yo'lingizdan yordam so'rab chiqqan necha odamga ishonmay, manzilda davom etgansiz? Ular orasida muhtojlari yo'q edi, hammasi yolg'ondan o'zini chorasiz qiyofaga solib olgan, deb ayta olasizmi?!

**Maqolamizda ko'tarmoqchi bo'lgan asl muammo ham shu** – kimga ishonish kerak, haqiqiy muhtoj kim? Jamiyatda tekintomoq kishilar qatlami shu qadar kengayib bormoqdaki, buning natijasida biz himmat qilishimiz lozim bo'lgan boquvchisiz, mehnatga layoqatsiz, beva-bechora va miskinlar ham yuqoridagi toifa soyasida e'tibordan chetda qolmoqda. Ko'chada sizdan pul so'rayotganlarning aksariyati pensiya yoshidagi, oilali odamlar bo'ladi. Farzandlarning mehrsizligi, oqibatsizligi natijasida ham bunday holatlar ko'payib ketmoqda. Siz-u bizning unchalik parvoyimizga kelmayotgan, nazarimizni tortmayotgan ushbu illat aslida kichkina muammo emas.


Yaqinda Remarkning "Qora haykal" asarini o'qib chiqdim. Asar urushdan keyingi Germaniya aholisi hayotidan hikoya qiladi. Urush oqibatida mag'lub nemis davlatida inflyatsiya shu qadar kuchayib ketadiki, bir tushlik qilgulik vaqtda dollar kursi tasavvur qilish mumkin bo'lmagan darajada o'zgarib turadi. Ishsizlik va qashshoqlik natijasida ko'chalar tilanchilar bilan to'lib ketadi va ular qo'lga chaqa tushgan zahoti oshxonaga

yuguradi, agar pulni uzoqroq ushlab tursa, unga keyinchalik hech vaqo bermaydi.

Biz XXI asrda yashayapmiz: ishlagan odam hech bo'lmaganda bировga muhtoj bo'lmaydigan, o'z nonini o'zi topib yeya oladigan, muhimi, urushsiz tinch zamonda rasmiy-norasmiy tilanchilarning bu qadar ko'pligi va kundan kunga ortib borishi normal holat emas.

Aziz tengdoshim, yaqinlaringizga e'tiborli bo'ling, mashaqqatli bo'lsa-da, mehnat qilib non topishga odatlaning. Minnatning noni qattiq bo'ladi, tishingizni sindiradi. O'zingizga va o'z kuchingizga ishoning!

Rashid XO'JAMOV



## IRSOLI MASAL

**Irsoli masal (forscha – masal keltirish) – she'rd a maqol, matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsad bilan ishlatish usuli.**

Irsoli masal san'ati o'zbek adabiyotida eng qadimiy shakllangan san'at turlaridan biri sanaladi. Unda ijodkorning ijodiy maqsadini ochish, xulosa va hukm chiqarish uchun misol sifatida xalq tilida mashhur bo'lgan maqollar keltiriladi. Hatto Gulxaniyning dunyoga mashhur "Zarbulmasal" (Yapaloqqush hikoyasi) asari butunligicha ushbu san'at asosida qurilgan. Unda xalqning dono naqllari, maqol va matallari, shuningdek, asrlar oshgan urf-odatlarini saqlanib qolgan.



Misolalar:

Xunob ichar vaqtimda xush kelding, ko'ngilim, xalq aro,  
Yaxshi masaldirkim: "Kechir yaxshi kishi osh ustina", (Ogahiy)

Sabr qilsang g'o'radin halvo bitar, Besabrlar o'z oyog'idin yitar. (Gulxaniy)

Eldorjon DIYOROV

# MUKOFOT



## HAQIQIY KITOBXONNIKI!

**Bosh sovrin –  
AVTOMOBIL!**

**Yana ko'plab  
sovg'alar sizni  
kutmoqda!  
QR-kodlar orqali  
batafsil  
ma'lumot olib,  
adabiyotlarga  
buyurtma  
berishingiz  
mumkin!**

**259.000**



**Factor  
books**



"Ikar" loyihasi nizomini  
yuklab oling



"Ikar" loyihasini ijtimoiy  
tarmoqlarda kuzatib boring



"Factor books" nashriyatini  
ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib



99 895 035 95 11 99 895 079 95 11

*ikar*  
O'zbekiston Respublikasi

Reklama huquqi asosida

## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-oktabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan haradda. Buyurtma - 6-885, Adadi - 10527. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimizga o'tish  
uchun QR-kodini  
telefoningiz orqali  
skaner qiling.



1 2 3 4 5 6